

**PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHIDA CHET TILLARINI
O'QITISHNING AHAMIYATI**

Hayitova Sevinch Bahodir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika ta'lism yo'naliishi talabasi

Email: sevinchh603@gmail.com

Tel: +998900756242

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich-

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

o'qituvchi u.shomurotov@dtpi.uz

+998915107420

Annatatsiya: Ushbu maqolada pedagogika ta'lism yo'naliishi chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlar, ta'lism shakllari va intraktiv metodlardan foydalanishni aytib o'tilgan

Kalit so'zlar: innovatsiya , chet tili metodikasi , metod , intensiv, metodika , samaradorlik, talab va taklif, metod, zamonaviy

Аннотация: В данной статье описано использование современных методов, образовательных форм и интерактивных методов при обучении иностранному языку в сфере педагогики.

Ключевые слова: инновация, методика иностранного языка, метод, интенсив, методология, эффективность, спрос и предложение, метод, современный.

Abstract: This article describes the use of modern methods, educational forms and interactive methods in foreign language teaching in the field of pedagogy.

Key words: innovation, foreign language methodology, method, intensive, methodology, efficiency, supply and demand, method, modern

Kirish. Chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz-O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. 2018-yil 1-yanvardan boshlab chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi malaka sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchi, talaba va pedagoglarga yetakchi xorijiy ta'lism muassasalarida til o'rganish amaliyotlarini tashkil etilmoqda. Chet tillarini o'rganish uchun bugun yoshlarga, qolaversa, barcha yurtdoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar o'zining ijobiy natijasini isbotlab bormoqda, desak adashmagan bo'lamiz. "Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi." - deydi o'zlarining ma'ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O'zbekistonning har bir

yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo'limgan, dunyo ta'lim standartlari darajasiga to'liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo'lishi shart va bunga jon-jahdimiz bilan kirishishimiz kerak. Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingлиз tilini o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislar gacha ingliztilini o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobjiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 19 -maydagi PQ-5117-SON qaroriga muvofiq shuningdek xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. Davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Xorijiy mahalliy faoliyatini muvofiqlashtiradi. Xorijiy mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko'magini mamlakatda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga jalg qilishni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikasining jahon hamjamiatiga yanada yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Asosiy qism. Bugungi kunda chet tilini o'rganish zamonaviy talim-tarbiya tizimi va milliy meros asosida har bir darsni o'ziga xos, takrorlanmas darajada tashkil etish ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yondoshish zarurligini talab qiladi. Talim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnoloigalardan foydalanish samaradorlikning oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg'ulot davomida chet tildagi video rolikni ko'rish orqali o'rganuvchining eshitish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba'zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o'qish va hattoki gapirish ko'nikmalarini o'stirishida ham yetarlicha o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydanishimiz mumkin. Bundan tashqari dars davomida zamonaviy metodlar ham talaba-o'quvchilarning chet tilini o'rganishda ancha yengilliklar yaratadi. Shu o'rinda "klaster", "baliq skeleti", "venn diagrammasi", "rolli o'yinlar", "aqliy hujum", "savol-javob" kabi metodlarni aytib o'tishimiz lozim. Har bir metodning qo'llanilishida alohida talaba-

o'quvchilar uchun chet tilini osonroq o'rganishda yengillik yaratib beruvchi omillari mavjud. Masalan, aqliy hujum metodini olsak, bu metod talabani tezroq fikrlashiga va nutqini o'stirishga juda ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bir birlari bilan fikr almashish orqali ham dunyoqarashi, fikrlash qobilyati rivojlanadi.

Chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki ta'lif standartlari o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lif asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lif tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzlusiz o'rganishni tashkil qilish shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan taminlash yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida 2013/2014 o'quv yildan boshlab respublikaning barcha hududlarda chet tillarni, asosan ingлиз tilini o'rganish umum ta'lif maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida ikkinchi sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan boshlanadi.

Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir necha yo'nalishi tanlab olinib, alohida e'tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilandi. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, turizmni rivojlantirish, dunyo bozoriga shahdam qadamla faol kirib borishi, barcha sohalarda hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni o'rganishga katta ehtiyoj tug'diradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'rganish uchun olib borilayotgaan islohotlar va qulayliklar barchasi hozirgi yoshlарimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochilishi deb bemalol aytishimiz mumkin. Bunday imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalangan holda chet tillarini mukammal o'rganib yurtimiz kelajagi, iqboli uchun o'z hissamizni qo'shishimiz va albatta hayotimizni yanada osonlashtirish uchun o'z bilimimizga tayangan holda ixtiro, kashfiyotlar qilishimiz zarur. Til o'rgan ishda innovatsion texnologiyalarning o'rni katta hisoblanadi. Nafaqat o'z yurtimizdagi maktab, litsey, universitlarda o'qish uchun balki chet el bilim maskanlarida o'qish uchun foydali. Chet elga bormasdan ham online zamonaviy texnologiyalar orqali masofaviy o'qish mumkin. Ta'lif tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion

texnologiyalardan samarali foydalanish kerak. Xulosa qilib aytganda, hozirgi 21- asr texnologiyalar rivojlangan asrda 7 yoshdan 70 yoshgacha til o'rganish va o'rgatishda qulay, oson va zamonaviy o'qitish metodlari ishlab chiqilgan va yo'lga qo'yilgan va yana ham ko'proq izlanishlar olib boorish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117-SON qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagagi 465-1-sonli "Ta'lif tog'risida"gi qonunini.
- 3.Jalilov J. Chet tili o'qitish metodikasi, Toshkent .2012
- 4.Zaripov R.A. O'zbek mакtablarida chet tili o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlari, O'qituvchi-1979
- 5.Chet tillar oliy o 'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik T: 2020